| <i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i><br>SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM<br>PRACTICE .....                                                                                         | 557-562 |
| <i>Akramova Umeda Salievna</i><br>ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ<br>ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ .....                                                                 | 563-574 |
| <i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i><br>МАТЕМАТИКА FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA<br>BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING<br>AHAMIYATI ..... | 575-582 |
| <i>Boboqulov Chori Urolovich</i><br>SHAHMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI<br>RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....                                                                   | 583-587 |
| <i>To'xtayev Hasan Toshpo'latovich</i><br>ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV-<br>PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI .....                                                             | 588-591 |
| <i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i><br>JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI<br>RIVOJLANTIRISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                   | 592-599 |
| <i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i><br>OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH<br>(SOTSIOLOGIK TAHLIL) .....                                                        | 600-607 |
| <i>Madaminova Narqizaxon Jahongir qizi</i><br>МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ<br>ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ .....                                                                                                | 608-611 |
| <i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i><br>RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARIDA<br>KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....                                            | 612-618 |
| <i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i><br>МАКТАБГАЧА TA'LIMGA XORIJIY TAJIRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM<br>TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR .....                                                          | 619-623 |

|                                                                                                                                                                                                                     |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i><br>O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID<br>NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI .....                                   | 624-628 |
| <i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i><br>JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARNING TADQIQOTCHILIK<br>KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK<br>ASOSLARI .....                           | 629-634 |
| <i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i><br>ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ<br>В ПРАКТИКЕ .....                                                                                                        | 635-640 |
| <i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i><br>МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ<br>ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК,<br>И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ ..... | 641-647 |
| <i>Муминова Офтобхон Каримовна</i><br>ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ<br>ТЕРМИНОВ .....                                                                                           | 648-653 |
| <i>Ахмедова Уктамхон</i><br>РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ<br>РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ .....                                                                              | 654-659 |
| <i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i><br>TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH .....                                                                                                                         | 660-664 |
| <i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i><br>МАКТАБГАЧА ВА БОШLANG'ICH TA'LIMDA МАТЕМАТИКА MASHG'ULOTLARINING<br>UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI .....                                                          | 665-670 |

**Received:** 30 November 2024

**Accepted:** 5 December 2024

**Published:** 15 December 2024

*Article / Original Paper*

## **SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF INDEPENDENT LEARNING TASKS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE IN HIGHER EDUCATION**

**Urazkulova Anna Vitalyevna,**

Kokand University

Lecturer of the Department of Social Sciences

**Abstract.** This article studies the scientific and pedagogical significance of independent learning tasks in teaching the Russian language in higher education. The study analyzed the effectiveness of independent learning in students' learning of the Russian language, the role of consolidating knowledge, and the development of lexical and grammatical skills. The results of the study showed that independent learning tasks increase students' interest in the language and effectively develop their reading and writing skills. In addition, they help to increase students' motivation and increase their interest in self-development. Independent learning tasks are an important pedagogical tool for teachers in the process of teaching the Russian language, increasing the general level of knowledge of students.

**Keywords:** independent learning, Russian language, higher education, pedagogical significance, consolidating knowledge, lexical skills, grammatical skills, motivation, educational process.

## **OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI**

**Urazkulova Anna Vitalyevna,**

Qo'qon universiteti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'limda rus tili fanini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining ilmiy-pedagogik ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqotda mustaqil ta'limning talabalarining rus tilini o'rganishdagi samaradorligi, bilimlarni mustahkamlash, leksik va grammatika ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqil topshiriqlar talabalarining tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning o'qish hamda yozish ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Bundan tashqari, talabalarining motivatsiyasini oshirish va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga yordam beradi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari rus tili o'qitish jarayonida o'qituvchilar uchun muhim pedagogik vosita bo'lib, o'quvchilarning umumiy bilim darajasini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, rus tili, oliy ta'lim, pedagogik ahamiyat, bilimlarni mustahkamlash, leksik ko'nikmalar, grammatika ko'nikmalari, motivatsiya, ta'lim jarayoni.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N74>

**Kirish.** Oliy ta'lim tizimida rus tilini o'qitish jarayoni zamonaviy ta'lim talablariga javob beruvchi pedagogik yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Bugungi globallashuv davrida rus tili xalqaro aloqalarda, fan va texnologiya sohalarida, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda

muhim vosita bo'lib qolmoqda. Shu sababli, rus tilini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining ahamiyatini oshirish va samarali tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Mustaqil ta'lim talabalarining bilim olish jarayonida faolligini oshiradi, ularga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarining bilim olish jarayonini individuallashtirish imkonini yaratadi, bu esa o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [1;29]. Ayniqsa, rus tilini o'qitishda mustaqil topshiriqlar o'quvchilarning lingvistik materialni mustahkamlash, qiyin tushunchalarni o'zlashtirish va individual ravishda mashq qilishlariga sharoit yaratadi. Zamonaviy ta'limda "4K modeli" – kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik va tanqidiy fikrlash tamoyillariga asoslangan yondashuv rus tilini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etadi [2;168]. Bu yondashuv talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlariga qiziqishini oshiradi va ularda zamonaviy lingvistik muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida rus tilini o'qitishning an'anaviy yondashuvlarini tahlil qilish va yangicha pedagogik usullarni joriy etish orqali talabalarining kompetensiyasini oshirish imkonini beradi [5;78]. Mazkur maqola rus tilini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining ilmiy-pedagogik ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda bu masalaning nazariy va amaliy jihatlari, samaradorligi va uning talabalarining o'quv natijalariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu maqola orqali rus tilini o'qitishda samarali pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi.


**Adabiyotlar tahlili.** Rus tilini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlari haqida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. B. Abdullayev rus tilini o'qitishda samarali usullarni tadqiq qilib, ularning talabalarining lingvistik qobiliyatlarini oshirishdagi o'rnini aniqladi. Uning tadqiqotida mustaqil topshiriqlarning ahamiyati, xususan, talabalarining grammatik materialni o'zlashtirishiga bo'lgan ta'siri alohida ta'kidlangan [1;29]. M. Buriyeva "4K modeli" asosida tashkil etilgan hamkorlik muhiti rus tili darslarining samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Ushbu model bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarning ijodkorligi va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa talabalarining lingvistik muammolarni mustaqil hal qilishiga yordam beradi [2;168].

M. Mamadiyorova xorijiy tillarni o'qitishda mustaqil ta'limning kommunikativ-pedagogik tamoyillarini o'rganib chiqdi va ularning pedagogik samaradorligini isbotladi. Uning tadqiqotida mustaqil ta'lim topshiriqlari orqali talabalarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi yoritilgan [3;95]. Z.Avliyakov va L. Ponomareva tomonidan olib borilgan tadqiqot O'zbekistonda rus tili o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi. Ularning fikricha, rus tilini o'rgatishda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin [5;78]. I. Aleshkovskiy va boshqalar rus tili va ta'limini xalqaro miqyosda rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotda ushbu tilning dunyo hamjamiyatidagi ahamiyati va uni o'qitish metodikalarini takomillashtirish zaruriyati qayd etilgan [6;65]. Umuman olganda, yuqorida keltirilgan adabiyotlar rus tilini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining ilmiy-pedagogik ahamiyatini chuqurroq o'rganish va uni yanada rivojlantirish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqot rus tilini oliy ta'limda o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining ilmiy-pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda metodik tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Birinchidan, so'rovnoma usuli orqali talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlariga bo'lgan munosabati, ularning bajarish darajasi va qiyinchiliklari

haqida ma'lumot to'plandi. So'rovnoma 120 nafar rus tili kurslari tinglovchilari ishtirok etdi. Ikkinchidan, eksperimental usul yordamida rus tili topshiriqlarining samaradorligi tahlil qilindi. Eksperiment 60 nafar talaba ishtirokida o'tkazilib, ular ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Tajriba guruhiga maxsus ishlab chiqilgan mustaqil topshiriqlar tizimi taklif qilindi. Uchinchidan, kontent-tahlil usuli yordamida talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar sifat jihatdan baholandi. Bunda grammatik, leksik va uslubiy xatolarni aniqlash hamda topshiriqlarni bajarishda innovatsion usullardan foydalanish darajasi o'rganildi. Shuningdek, tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlarga asoslangan holda statistik tahlil o'tkazildi va ularning natijalari jadval shaklida ifodalandi.

**Natijalar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari rus tilini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'quvchilarning bilim olish jarayoniga sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 68 foizi mustaqil topshiriqlar ular uchun mavzularni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidladi, ammo 34 foiz talaba bu jarayonni murakkab va qiyin deb baholadi. Bu esa talabalar orasida mustaqil ta'lim topshiriqlariga yondashuv turlicha ekanligini ko'rsatdi. Eksperiment natijalariga ko'ra, tajriba guruhi talabalarining akademik ko'rsatkichlari nazorat guruhidan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Tajriba guruhida grammatik xatolar soni dastlabki 14% dan 6% gacha kamaydi, leksik mahorat esa 72% dan 89% gacha oshdi. Ushbu natijalar maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimining samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqotning kontent-tahlil qismi ham qiziqarli natijalarni ochib berdi. Tajriba guruhi tomonidan bajarilgan topshiriqlarda innovatsion yondashuvlardan foydalanish 62% ni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhida atigi 29% bo'lgan. Bunday farq ta'limda mustaqil topshiriqlardan samarali foydalanish talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishini tasdiqlaydi.



**1-rasm. Tajriba ko'rsatkichlari**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi talabalari ko'rsatkichlarning barcha yo'nalishlarida nazorat guruhidan ustunlikka erishdi. Shuningdek, talabalar mustaqil topshiriqlar orqali maqsadli va individual yondashuvni shakllantirganliklarini qayd etdilar. Bunda ularning lingvistik qobiliyatlari sezilarli darajada oshganligi kuzatildi. Masalan, tajriba guruhidagi talabalar rus tili matnlarini tahlil qilishda 85% muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 63% ni tashkil etdi. Tadqiqotning davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim topshiriqlari rus tili o'qitish jarayonida talabalarning

lingvistik va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Tajriba guruhida bajarilgan topshiriqlarda talabalarning muloqotdagi tezkorligi, rus tilidagi nutqning aniq va to'g'ri ifodalanishi sezilarli darajada oshdi. Bu natijalar, mustaqil ta'lim topshiriqlari nafaqat til o'rganishdagi ko'nikmalarni, balki fikrlashni, mantiqiy va tizimli yondashuvni ham mustahkamlashga yordam berishini ko'rsatadi.

Eksperiment davomida talabalarning matnni tushunish va tahlil qilishdagi muvaffaqiyatlari aniq ko'rsatkichlarda aks etdi. Tajriba guruhidagi talabalar rus tilidagi matnlarni tahlil qilishda 90% muvaffaqiyatga erishdi, bu nazorat guruhidan (72%) sezilarli darajada yuqori natija. Shuningdek, ular kompleks grammatik konstruksiyalarni to'g'ri ishlatish borasida ham yaxshilanishni ko'rsatdilar. Yana bir qiziqarli natija shundaki, mustaqil topshiriqlarni amalga oshirish talabalarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirgan, bu esa ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirgan. So'rovnoma ishtirok etgan talabalarning 80% dan ortig'i mustaqil topshiriqlarni qiziqarli va foydali deb hisoblagan. Bu esa mustaqil ta'lim topshiriqlarining talabalar uchun nafaqat ilmiy, balki psixologik jihatdan ham foydali ekanligini tasdiqlaydi. Rasmda olingan boshqa natijalar bilan birga, talabalarning rus tili bo'yicha bilim darajasi o'zgarishlari va ularning mustaqil topshiriqlarga nisbatan yondashuvi ko'rsatilgan.

| Ko'rsatkich                                   | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi |
|-----------------------------------------------|----------------|----------------|
| Grammatik xatolar (foizda)                    | 14%            | 6%             |
| Leksik mahorat (foizda)                       | 72%            | 89%            |
| Innovatsion yondashuv (foizda)                | 29%            | 62%            |
| Matnni tushunish va tahlil qilish (% success) | 72%            | 90%            |
| Tilga bo'lgan qiziqish va motivatsiya (%)     | 65%            | 80%            |
| Akademik ko'rsatkichlar (%)                   | 78%            | 91%            |

**1-jadval. Talabalarning rus tili bo'yicha bilim darajasi o'zgarishlari va ularning mustaqil topshiriqlarga nisbatan yondashuvi**

Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar tajriba guruhi talabalari o'zlarining rus tili va ta'limga bo'lgan yondashuvlarini sezilarli darajada yaxshilaganini ko'rsatadi. Buning natijasida, o'quvchilar o'z bilim darajalarini oshirib, til o'rganishda muvaffaqiyatli natijalarga erishishdi. Shuningdek, talabalarning nazariy va amaliy mashg'ulotlar orasidagi farqni aniq ajratib, mustaqil ta'lim topshiriqlari orqali ularning muvaffaqiyatlarini oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarni o'z-o'zini nazorat qilishga, o'qish va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga undaydi. Tajriba guruhida ishtirok etgan talabalar o'zlarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirgan bo'lsa, nazorat guruhidagi talabalar bunday o'zgarishlarni sezmagan. Bu esa mustaqil topshiriqlarni kengaytirish va ularni muntazam ravishda o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, mustaqil ta'lim topshiriqlari yordamida o'quvchilar nafaqat tilni, balki boshqa



ko'nikmalarni ham rivojlantirishga erishdilar. Tajriba guruhi talabalarida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish darajasi 80% ni tashkil etdi, bu esa talabalarning tilni faqat o'rganish emas, balki uni real hayotda qo'llashga qodir ekanliklarini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, o'qitishning interaktiv yondashuvlari va mustaqil topshiriqlar orqali talabalarga yanada kreativlikni oshirishga imkoniyat yaratilmoqda. Ularning fikrini ifodalash, tilni ishlatishda samarali metodlarni qo'llashga o'rgatish, rus tilining kundalik muloqotdagi ahamiyatini tushuntirish bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. Bu esa mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'quvchilarda tilni o'rganish jarayonidagi muhim bosqichga aylanishi mumkinligini tasdiqlaydi. Yuqoridagi barcha natijalar va tahlillar mustaqil ta'lim topshiriqlari rus tili o'qitish jarayonida samarali vosita sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu usulning kengaytirilgan va tizimli qo'llanilishi o'quvchilarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari rus tilini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining samaradorligi va ularning o'quv jarayoniga ijobiy ta'sirini aniq tasdiqladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning til o'rganishdagi faolligini oshiradi, ularning bilimlarini chuqurlashtiradi hamda akademik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu sababli, ushbu tizimni kengroq miqyosda qo'llash zarur deb hisoblanadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rus tili o'qitish jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlarining qo'llanilishi talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini samarali rivojlantiradi. Eksperimentda ishtirok etgan talabalar mustaqil topshiriqlarni bajarish orqali tilni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan o'rganishga qodir bo'ldilar. Tajriba guruhidagi talabalar, nazorat guruhiga nisbatan, rus tilida grammatika va leksika xatolarini kamaytirishdi, bu esa mustaqil ta'lim topshiriqlarining ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Mustaqil topshiriqlarning samaradorligi, o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Tajriba guruhidagi talabalarning tilni ishlatish va muloqotdagi muvaffaqiyat darajasi yuqori bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, rus tili o'qitish jarayonida mustaqil topshiriqlar yordamida o'quvchilar nafaqat ilmiy maqsadlar uchun, balki kundalik muloqotda ham tilni samarali ishlatish qobiliyatini oshiradilar.

Shuningdek, tadqiqotda ko'rsatilganidek, mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarning motivatsiyasini oshirishga ham katta yordam beradi. Talabalar mustaqil ravishda ishlashni o'rganish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga qiziqish bildiradilar. Bu holat, til o'rganish jarayonida o'quvchilarga yanada yuqori natijalarga erishish uchun kerakli motivatsiyani yaratadi. Shu bilan birga, mustaqil topshiriqlarni bajarish talabalarga o'z bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini ham beradi. Biroq, tadqiqot davomida shuni ham ta'kidlash kerakki, mustaqil ta'lim topshiriqlarini samarali tashkil etish o'qituvchilardan yanada yuqori darajadagi pedagogik malakani talab qiladi. Boshqa tomondan, ba'zi talabalar uchun mustaqil ishlash jarayoni murakkab bo'lishi mumkin, bu esa o'qituvchilarning har bir talabaning individual ehtiyojlarini inobatga olib, topshiriqlarni turli darajalarga moslashtirishni talab qiladi. Demak, mustaqil ta'lim topshiriqlari samarali bo'lishi uchun ta'lim jarayonida moslashuvchanlik va individual yondashuv zarurdir. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari mustaqil ta'lim topshiriqlarining rus tili o'qitishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Biroq, bunday topshiriqlarni to'g'ri tashkil etish va tizimli yondashuvni qo'llash muhimdir. O'qituvchilar va talabalarning bunday jarayonga tayyorligi, shuningdek, yangi

metod va yondashuvlarni qo'llash usullarini o'rganish hamda ularni amaliyotda qo'llash talab etiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim topshiriqlari rus tili o'qitish jarayonida talabalarning til o'rganish ko'nikmalarini samarali ravishda rivojlantiradi. Tajriba guruhining natijalari, nazorat guruhiga nisbatan, sezilarli farqni ko'rsatdi, bu esa mustaqil topshiriqlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari yordamida talabalarning grammatika, leksika va muloqotdagi muvaffaqiyatlari oshdi. Shu bilan birga, talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini ham oshirdilar. Tadqiqotda shuningdek, mustaqil ta'lim topshiriqlarining motivatsiya va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ham ta'kidlandi. Talabalar o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishini oshirish, tilni o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi. Bunday topshiriqlar talabalarga individual yondashuvni ta'minlash orqali ularning o'quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi va ular uchun ta'limni yanada qiziqarli va foydali qiladi. Biroq, mustaqil ta'lim topshiriqlarini samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning yuqori malakasi va individual yondashuv zarur. Talabalarning o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'qituvchilar turli darajadagi topshiriqlarni taklif etishlari kerak. Bu, o'z navbatida, talabalarni yanada muvaffaqiyatli natijalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, mustaqil ta'lim topshiriqlari rus tili o'qitish jarayonining samarali vositasi sifatida keng qo'llanilishi kerak. Bunday topshiriqlar nafaqat til o'rganish jarayonini chuqurlashtiradi, balki talabalar uchun o'quv faoliyatining interaktiv va motivatsion darajasini oshiradi. Bunday tizimli yondashuv, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning bilimlarini amaliyotda qo'llashga imkon yaratadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev, B. Z. (2024). Rus tilini o'qitishning samarali usullari va ularni qo'llash. *Science Promotion*, 9(1), 29-32.
2. Buriyeva, M. (2024). Methods of Using a Collaborative Environment in Organizing Russian Language Lessons on the Basis of the "4k" Model. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 168-173.
3. Mamadiyorova, M. M. (2024). Xorijiy tillarni o'qitishda mustaqil ta'limning kommunikativ-pedagogik tamoyillari. *Miasto Przyszłości*, 53, 95-98.
4. Muckle, J. (2024). A guide to the Soviet curriculum: What the Russian child is taught in school. Taylor & Francis.
5. Авлиякулов, З. А., & Пономарева, Л. И. (2024). Подготовка будущих педагогов к преподаванию русского языка в общеобразовательной школе Узбекистана. *Вестник Шадринского государственного педагогического университета*, (2 (62)), 78-85.
6. Алешковский, И. А., Борисенко, Е. А., Гаспаришвили, А. Т., Крухмалева, О. В., Москаленко, Л. С., & Савина, Н. Е. (2024). Продвижение русского языка и российского образования в Африке в новых реалиях. *Век глобализации*, 2, 65-79

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali  
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli  
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.  
**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog'lanish uchun telefonlar:**  
(99) 602-09-84 (telegram).